



XALQARO INVESTITSIYALAR VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA JALB ETISH IMKONIYATLARI TENDENTSIYASI

**Butayev Javlonbek
Inatillo o'g'li**

TDIU doktranti

**G'affarov Jonro'z
Navro'z o'g'li**

TDIU talabasi

Annotatsiya: Ushbu tezisda jahon amaliyoti va tadqiqotlari o'rganilib, mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishda sarmoyaviy faoliyat muhim o'rin tutishi, ular orqali iqtisodiy va ijtimoiy sohalar hamda aholini ish bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari yuqorilashiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, milliy iqtisodiyot, xorijiy investitsiya, investitsion muhit, jahon bozori, iqtisodiy o'sish, texnika, texnologiya, eksport, import, investor.

Investisiyalar, jumladan, xorijiy investisiyalar, ayniqsa, respublikamiz uchun alohida ahamiyatga ega. Chunki respublikamizda yashirin ishsizlik yuqori, buni 27% atrofidagi ishlovchilarning qishloq xo'jaligida bandligi bilan ham izohlash mumkin. Ish o'rinlari yaratish jihatidan hozirgi aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot jahon miqyosidagi o'rtachadan past – 3,092 dollar [1] darajasida ekanligi iqtisodiy nuqtai nazardan eng optimal variant iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarni jalb qilishdir.

Investisiyalarning aholi bandligini va farovonligini ta'minlashda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda har yili investisiyalarga, investitsion muhit yaratilishiga nafaqat har bir mamlakat, balki xalqaro miqyosda BMT Bosh Assambleyasining savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD) tomonidan alohida diqqat-e'tibor beriladi. UNCTAD tadqiqotchilari tomonidan tayyorlangan dunyo miqyosida investisiyalarga bag'ishlangan ma'ruza va uning chuqur tahlil qilingan sharhlari (World Investment Report) 1991 yildan boshlab e'lon qilinadi. Mazkur disertatsiyadada investisiyalar, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar global va hududiy o'zgarishlar hamda tendensiyalar xalqaro miqyosida milliy iqtisodiyotda investitsion siyosat bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari, tahlili e'lon qilinadi [2]. Har yili Jahon banki (World Bank Group), Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund), BMT Bosh Assambleyasining savdo va taraqqiyot konferensiyasi (UNCTAD/United Nations Conference on Trade and Development) tadqiqotchilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar (TTXI) bo'yicha dunyo

mamlakatlari va hududlarining global reytingi (joriy narxlarda AQSh dollari nominal qiymati bo'yicha hisoblanadi) aniqlanadi va e'lon qilinadi [3].

O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda faqat o'z mablag'lari evaziga iqtisodiyotga investisiyalarni yo'naltirish qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirishga yetarli darajada imkon bermaydi. Buni aholi jon boshiga yaratilgan milliy daromad bo'yicha global reyting ko'rsatkichlari ham tasdiqlaydi.

2022-yilda O'zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi joriy narxlarda 888,34 trln so'mni tashkil etdi. Bu 2021-yilga nisbatan 5,7% real o'sishni anglatadi

Aholi jon boshiga YAIM real qiymatda 3,5% o'sib, 21,15 mln so'mdan 24,91 mln so'mgacha (yoki taxminan \$2,254.9) yetdi. Bu 2021-yilda 5,3% o'sish bilan taqqoslaganda, o'sish sur'ati pasayganini ko'rsatadi. 2020-yilda pandemiya ta'sirida o'sish faqat 0,1% ni tashkil etgan edi.

2023-yilda YAIM hajmi 1,066,6 trln so'mga yetdi va 2022-yilga nisbatan 6% ga o'sdi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi 29,3 mln so'mni tashkil etdi .

2024-yilda YAIM hajmi 1,145 trln so'mga yetishi kutilmoqda, bu 2023-yilga nisbatan 7% o'sishni anglatadi. Aholi jon boshiga YAIM hajmi 32,5 mln so'mga yetishi prognoz qilinmoqda .

Shunday qilib, 2010-2024-yillar davomida YAIM o'sish sur'ati 2020-yildan tashqari deyarli bir maromda 104,5–107,8% orasida bo'lgan.

2021 yil yozida prezident Shavkat Mirziyoyev 2026 yilga borib O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlarini 1,5 barobarga oshirish va YAIM hajmini kamida 100 mlrd dollarga yetkazishni rejalashtirayotganini ta'kidlagan edi.

Vaholanki, sinergetik effekt tufayli YaIM o'sish darajasi ancha yuqori bo'lishi zarur. Agarda iqtisodiy o'sish sur'ati kiritilayotgan investisiyaga mos ravishda oshmasa kiritilayotgan investisiyalarning samaradorligi pasayib borayotgani yoki yaratilayotgan mahsulotning kapital sig'imining ortib borayotganini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi va Investisiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi negizida tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Prezidentimizning PQ-4135-son Qaroriga asosan [4], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qaroriga muvofiq mazkur vazirlik huzurida Xorijiy investisiyalarni jalb etish agentligi tashkil etilishining ham ijobiy ta'siri bor.

Bu rasmiy institutlar, respublikamizda ish o'rinlari yaratishda, innovatsiyalarni joriy qilishda investitsiyalarning, jumladan, xorijiy investorlarga naqadar muhimligini, bunda institusional muhit alohida rol o'ynashini hisobga olib, masalaga alohida diqqat qaratilayotganidan dalolat beradi. Shuni hisobga olish kerakki, xorijiy investitsiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotga jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jahon xo'jalik tizimiga chuqurroq integratsiyalashish o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> ma'lumotlari.
2. Jahon investitsiya hisoboti 2020 [electron resurs]
https://unctad.org/system/files/official-document/wir2020_overview_en.pdf

3.To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingi.Sayt:<http://worldbank.org>;<https://gtmarket.ru/ratings/foreigndirectinvestment-index.ru>

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.01.2019 yildagi PQ-4135-son "O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi va Investitsiyalar bo'yicha davlat qo'mitasi" <https://lex.uz/docs> 4182334